

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**ALIMOVA MAFTUNA RAVSHANBEK QIZI**

**TURLI TIZIMLI TILLARDA KOGNITIV LAKUNALAR TADQIQI**

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

<b>Alimova Maftuna Ravshanbek qizi</b> Turli tizimli tillarda kognitiv lakunalar tadqiqi .....	3
<b>Alimova Maftuna Ravshanbek kizi</b> Study of cognitive lacunas in different structural languages.....	25
<b>Алимова Мафтуна Равшанбек кизи</b> Изучение когнитивных лакун в различных структурных языках.....	47
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati</b> List of published works Список опубликованных работ .....	53

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**ALIMOVA MAFTUNA RAVSHANBEK QIZI**

**TURLI TIZIMLI TILLARDA KOGNITIV LAKUNALAR TADQIQI**

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2024.3.PhD/Fil 4278 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.adchti.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Ziyayev Avaz Ixtiyorovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Iskandarova Sharifa Madaliyevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli ilmiy Kengashning 2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel: 0 (374) 223 4276, faks: 0 (374) 223 4276; e-mail: info@asifl.uz.)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_- raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel: 0 (374) 223 4276)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**D.A.Rustamov**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi  
filologiya fanlar doktori (DSc), professor

**A.Dj.Atboyev**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent

**Sh.Shaxobitdinova**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlar doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** XX asrning o'rtalaridan boshlab, jahon tilshunosligi va tarjimashunosligida tillararo muqobilsiz leksika turlari keng o'rganilmoqda. Ushbu turlarni o'rganish jarayonida muqobilsiz leksikaning paydo bo'lishiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan. Xususan, ijtimoiy-madaniy va lingvistik omillarning ijobiy va salbiy ta'siri tahlil qilingan. Leksik birliklarning umumiy tavsifi va tasnifi orqali tarjima jarayonida turli usullarni qo'llash samaradorligi aniqlangan. Ma'nosi va qo'llanilishi jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan leksik birliklar, jumladan, ekzotik leksika, lakunalar va realiyalar, til va madaniyatdagi o'xshashlik va farqlar nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Yuqoridagi leksik birliklarni tahlil qilish turli yondashuvlar, ayniqsa, kognitiv tilshunoslikning rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Xususan, lakunalarni kognitiv tadqiq etish lingvistik ong kontekstida til va madaniyat haqidagi turli g'oyalarni aks ettiradi. Ikki yoki undan ortiq til va madaniyatni solishtirganda, kognitiv bo'shliqlarni o'rganish bir tilda mavjud bo'lib, ammo boshqa tilda muqobili yo'q tushunchalarni tushinishda va yuzaga keladigan bo'shliqlarni aniqlashda dolzarb bo'ladi.

Jahon tilshunosligi sohasida globalizatsiya va millatlararo integratsiya jarayonlarining tezlashuvi, shuningdek, badiiy va ilmiy tarjimaning kengayishi leksik bo'shliqlarni bartaraf etish va muqobilsiz leksika muammosini hal etishda muhim rol o'ynamoqda. Tillarning leksik tarkibidagi nomuvofiqliklar masalasi, xususan, muqobilsiz leksikaning funksional-semantik xususiyatlarini chuqur o'rganish zarurati ortib bormoqda. Bu kontekstda til va madaniyatning noyob va o'rni to'ldirib bo'lmaydigan jihatlarini aks ettiruvchi lakunalar va lakunar birliklarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega, chunki bu konseptlar til va madaniyat o'rtasidagi o'rni to'ldirib bo'lmaydigan tushunchalarni aniqlashga yordam beradi. Kognitiv lakunalarni o'rganish orqali tildan foydalanish natijasida yuzaga keladigan madaniy idrokning o'ziga xos xususiyatlari inson ongida qanday o'zgarishini ko'rish mumkin. Bugungi kunda lakunalar turli yondashuvlar asosida faol ravishda tadqiq etilmoqda. Xususan, lingvistik, etnolingvistik, psixolingvistik, kognitiv, pragmatik va lingvomadaniy tadqiqotlarda boshqa tillarda aniq ekvivalenti bo'lmagan so'z va iboralarni tahlil qilish muhim vazifaga aylangan. Ayniqsa, faqat ma'lum bir til va madaniyatga xos bo'lgan tushunchalar, ya'ni kognitiv lakunalar, boshqa til vakillari uchun tushunishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun zamonaviy tilshunoslikda bunday lakunalarni aniqlash va ularni to'g'ri tarjima qilishda transliteratsiya, adaptatsiya va izohli tarjima usullari katta ahamiyat kasb etmoqda.

Kognitiv lakunalar va muqobilsiz leksikani tahlil qilish tilni lingvistik o'rganish darajasidan tashqariga olib chiqib, xalqaro miqyosda madaniy o'ziga xoslikni ifoda etish va tillararo tarjima jarayonlarida chuqurroq anglashga imkon beradi. Bu ilmiy izlanishlar bebaho boyligimiz bo'lgan o'zbek tilini dunyo miqyosida keng targ'ib qilish imkonini yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi so'zlari fikrimiz isbotidir: "Men bugun aziz bolalarimizga murojaat qilib, ulug' alloma, XX asr boshida olti tilli – o'zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug'at tuzgan Is'hoqxon Ibratning mana bu hikmatli so'zlarini eslatmoqchiman: "Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun sa'y-

harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir”. O‘ylaymanki, bu so‘zlarga ortiqcha izohning hojati yo‘q”<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur soha bo‘yicha qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** XX asrda G.P.Shatkov, R.Yakobson<sup>2</sup> kabi olimlar lakunalar nazariyasini leksik tizimlar o‘rtasidagi muqobilsizlik orqali tadqiq qilganlar. Shuningdek, A.V.Fedorov, Y.I.Retsker, L.S.Barxudarov, S.Vlaxov va S.Florin<sup>3</sup> lakuna va realiya masalalariga e‘tibor qaratganlar. Y.A.Sorokin, I.Y.Markovina, I.A.Sternin, G.V.Bikova<sup>4</sup> madaniyatlararo muloqotdagi til va madaniyatning o‘zaro aloqasini o‘rganib, lakuna va uning turlari haqida batafsil tasnif yaratganlar. Yuqorida keltirilgan olimlar lakuna va lakunar birliklarni asosan lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishni ilgari surishgan. Ularning tadqiqotlari tillar orasida mavjud bo‘lgan aqliy (kognitiv) va tushunchaviy (konseptual) farqlarni aniqlash uchun asos sifatida xizmat qiladi, shuningdek, til birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini ko‘rsatib beradi.

---

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – Toshkent, 21.10.2019, 22:06. – UZA. <https://uz.uz/posts/prezident-shavkat-mirziyeevning-zbek-tiliga-davlat-tili-ma-o-21-10-2019>

<sup>2</sup> Шатков В.Г. Перевод русской безэквивалентной лексики на норвежский язык: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М., 1952. – 22 с.; Jacobson R. Linguistic Aspects of Translation // Ed. By R.Brower. – Cambridge: Mass, 1959. – P.236.

<sup>3</sup> Федоров А.В. Искусство перевода и жизнь литературы. – Л., 1983. – 303 с.; Швейцер А.Д. Перевод и лингвистика. – М.: Воениздат, 1973. – 273 с.; Рецкер Я. И. Теория перевода и переводческая практика. – М., 1971. – 244 с. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М., 2008. – 240 с.; Влахов С, Флорин С. Непереводимое в переводе. – М., 2009. – 360 с.

<sup>4</sup> Проскурин Е.Г. Когнитивная лакунарность текста как проблема межкультурной коммуникации: Диссертация на соис. ученой степени канд. филол. наук. – Барнаул, 2004. – С. 34.

O‘zbek tadqiqotchilari G.Salomov, D.O‘.Hoshimova, N.M.Uluqov<sup>5</sup> va boshqa olimlar o‘z ishlarida muqobilsiz leksika va realiyalarning tarkibiy qismlarini tahlil qilib, tilimizdagi mavjud bo‘shliqlar haqida o‘zbek tilida batafsil ma’lumotlar berishgan. So‘nggi yillarda D.O‘.Xoshimova, D.A.Rustamov, Sh.Usmanova, Z.Xolmanova, N.Ismatullayeva, F.Musayeva, N.T.Dosbayeva, A.M.Hasanov<sup>6</sup> va boshqa olimlar sohaga doir izlanishlar olib borishdi, biroq tilshunoslikida kognitiv lakunalar muammosi monografik planda tadqiq etilmagan.

**Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat chet tillari instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarining “Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** kognitiv lakunalarining ifodalagan ma’nolarni boshqa tillarda aks etishini o‘rganish, til va madaniyatda bajargan vazifalari ularning kommunikativ jarayonda tutgan o‘rni va ahamiyatini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

lakunalar va lakunar birliklarni o‘zbek hamda jahon tilshunosligi va tarjimashunosligi nuqtayi nazaridan o‘rganish, turli ilmiy maktablar va olimlar fikrlarini tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish orqali yangi yondashuvlarni aniqlash va shakllantirish;

lakunar birliklarning milliy-madaniy mazmunini tavsiflash, ularning til tizimidagi o‘rnini aniqlash va o‘ziga xos til xususiyatlarini belgilash;

lakunalarining shakllanishiga ta’sir qiluvchi til va tilga oid bo‘lmagan omillarni tahlil qilish, ularning kelib chiqishini, til tizimidagi o‘rnini va madaniy muhit bilan aloqasini o‘rganish;

lakunalar orqali ifodalanadigan ma'nolarning lingvistik xususiyatlarini kognitiv yondashuv asosida o‘rganish va ularning tilga xos xususiyatlarini aniqlash;

leksik, frazeologik va metaforik lakunalarining funksional va metodologik jihatlarini belgilash hamda ularni semantik tasnif qilish.

**Tadqiqot obyektini** sifatida quyidagilar tanlab olindi: o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi izohli lug‘atlar; ikki tilli o‘zbek-ingliz, ingliz-o‘zbek, rus-ingliz va ingliz-rus tarjima lug‘atlari; lug‘atlar asosida shakllantirilgan ma’lumotnomalar; ingliz tilidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan badiiy adabiyotlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari materiallari.

---

<sup>5</sup> Саломов Г. Тил ва таржима. – Тошкент, 1966. – 384 б.; Саломов Г. Таржима назариясига кириш. – Тошкент, 1978. – 231 б.; Хашимова Д.У. Изучение безэквивалентной лексики русского языка: Автореф. дисс... канд. пед. наук. – Ташкент, 1993. – 25 с.; Улуқов Н. Экзотик лексика. – Тошкент: Усмон Носир медиа, 2021. – 126 б.

<sup>6</sup> Xoshimova D.O‘. Tillarning o‘zaro ta’siri jarayonida va rus tilida zamonaviy kontekstda qo‘llaniladigan lakunalarini o‘rganishning lingvodidaktik asoslari: Ped. fan. dok... diss. avtoref. – Toshkent. 2007. – B.42; Rustamov D.A. Лексемалар миллий-маданий хосланган семемасининг лингвомаданий тадқиқи: фил. фан. бўйича фалсафа доктори. (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – Б.45; Usmanova Sh. Lingvokulturologiya (darslik). – Тошкент: Universitet, 2019. – 246 б.; Xolmanova Z., Saidahmedova O., Nurillayeva O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi /monografiya/. – Тошкент: Navro‘z, 2018. – 94 б.; Исматуллаева Н.Р. Хитой ва ўзбек тилларида лакуналарнинг воқеланиши: фил.фан.бўйича фалсафа доктори. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – Б.52; Мусаева Ф. Лакуна ҳодисаси ва уни баргараф этишда шева лексикасининг аҳамияти //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. № 3. – 96 б; Досбаева Н.Т. Лакуна лингвомаданий ҳодиса сифатида // Илмий хабарнома, АДУ, 2018, №1. – Б. 86-88; Ҳасанов А.М. Ўзбек адабий тилидаги лексик лакуналарнинг диалектал асослари: фил. фан. бўйича фалсафа доктори. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – Б.55.

**Tadqiqotning predmeti** lakunar birliklarning semantik va funksional xususiyatlarini lingvistik tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, komponent tahlil, chog'ishtirish, umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

lakunar birliklar semantik va funksional-uslubiy jihatlar bo'yicha kognitiv asosda baholanishi va lingvistik modellar orqali uslubiy hamda funksional xususiyatlarda tavsiflanishi natijasida milliy o'ziga xoslik va madaniy kodlarni ifodalash imkoniyati asoslab berilgan;

lakunalar boshqa lisoniy birliklardan farqlanuvchi semantik to'ldiruvchi vazifasi va madaniyatni aks ettiruvchi o'ziga xos belgilari bilan ajralib turishi dalillangan;

lakunar birliklar tarjimashunoslik doirasida milliy madaniy komponentlarni aks ettirishda semantik, kognitiv, pragmatik rol o'ynashi va ularning lingvomadaniy xususiyatlari asoslanib, tarjima jarayonidagi asosiy qiyinchiliklarni bartaraf etish nazariy, amaliy imkoniyatlari dalillangan;

lingvistik va ekstralingvistik omillarni baholash orqali madaniyatlararo muloqotda lakunalar sabab vujudga keladigan muammolarni bartaraf etuvchi nazariy model asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:** lakunarlik hodisasi tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosalar, lingvomadaniyatshunoslik, madaniyatlararo muloqot, kognitiv tilshunoslik sohalarini muhim ilmiy ma'lumotlar bilan to'ldirishi asoslangan; muqobilsiz leksika bo'yicha to'plangan materiallar izohli, lingvomadaniy va tarjimashunoslik lug'atlariga material hamda manba sifatida xizmat qilishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiya yuzasidan ilmiy fikrlarning to'liq o'rganilganligi, tadqiq qilingan materiallar o'zbek va ingliz tillari tabiatidan kelib chiqqan holda xulosa qilish imkonini berganligi, ularning asosliligi, metodologik puxtaligi, mavzu bo'yicha ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilganligi, taklif, tavsiya va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati shundaki, lakunarlik hodisasini til tizimida to'ldirish usullaridan, lakunarlik va realiya bilan bog'liq qarashlardan qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, madaniyatlararo muloqot va etnolingvistikaning taraqqiy etishida, uni ilmiy-nazariy tavsiyalar bilan boyitishda muhim manba vazifasini o'taydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqotdagi materiallaridan "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Tilshunoslik nazariyasi", "Lingvomadaniyatshunoslik", "Madaniyatlararo muloqot", "Kognitiv lingvistika", "Pragmatik lingvistika", "Semantik tahlil", "Semasiologiya", "Til va madaniyat munosabatlari", "Korpus lingvistika" kabi maxsus kurslarni o'qitishda; mazkur fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy risolalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Turli tizimli tilarda kognitiv lakunalar tadqiqi bo'yicha olib borilgan ilmiy natijalar asosida:

lakunalar boshqa lisoniy birliklardan farqlanuvchi semantik to'ldiruvchi vazifasi va madaniyatni aks ettiruvchi o'ziga xos belgilariga oid yangilikdan O'zbekiston davlat xareografiya akademiyasida amalga oshirilgan "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug'atlar) to'plamini yaratish" mavzusidagi F3-2019081773-raqamli fundamental loyihani bajarishda, xususan, "O'zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o'zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha qisqacha izohli lug'ati"ni yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston davlat xareografiya akademiyasining 2024-yil 7-oktyabrdagi 1/04-127-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur lug'atdagi terminlarning rus, ingliz, fransuz tillarida izohlari, lakunalar nazariyasiga tayangan holda, o'zbekcha so'zlarning milliy ma'no qatlamini saqlashga imkon bergan va shu orqali o'zbekcha iboralar xalqaro miqyosda tushunarli bo'lishiga erishilgan;

lingvistik va ekstralingvistik omillarni o'rganish orqali madaniyatlararo muloqotda lakunalar sabab vujudga keladigan muammolarni bartaraf etuvchi nazariy modelga doir ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Tochkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PZ-2020042022 raqamli "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish"da foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 30-sentabrdagi 04/1-2664-son ma'lumotnomasi). Natijada platformada turkiy tillarga xos lakunalarning mazmunini yorituvchi qo'shimcha ma'lumotlar kiritilgan hamda ushbu yangi kontent o'quv materiallarini lingvokulturologik nuqtai nazardan boyitdi, ya'ni har bir turkiy tilga xos milliy-madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi lakunalar haqida o'quvchilarga to'liqroq ma'lumot berishga imkon yaratgan;

lakunar birliklar semantik va funksional-uslubiy jihatlar bo'yicha tizimli tasniflanib, kognitiv asosda tahlil qilinishi va lingvistik modellar orqali uslubiy hamda funksional xususiyatlarda tavsiflanishi natijasida milliy o'ziga xoslik va madaniy kodlarni ifodalash imkoniyati tahlili, ilmiy natija va xulosalaridan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2022-2023-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan IL-52. 21091433-raqamli "O'zbek realiyalariga oid maqolalar bazasi platformasini (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida) yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanildi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 6-noyabrdagi 04/1-3184-son ma'lumotnomasi). Natijada realiyalarga oid maqolalar bazasi platformasi mazmunan boyitildi, milliy o'ziga xoslik va madaniy kodlar to'laroq aks ettirildi hamda vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlariga muvofiqlashtirish jarayoni takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy natijalari 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiya mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi

Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola (shundan, 4 tasi xorijiy) jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 142 bet.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan. Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalari bayon qilingan, erishilgan natijalarning yangiligi ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotda joriy etish va foydalanish imkoniyatlari, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Millatlararo muloqot, uning nazariy asoslari va umumiy muammolari**" deb nomlangan bobi to'rt paragrafdan iborat bo'lib, "*Lingvomadaniyatshunoslikning nazariy masalalari*" paragrafida til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, tilning jamiyat va madaniyat bilan uzviy bog'liqligi, tilning madaniy hodisalar, milliy qadriyatlar, mentalitet va tafakkur shakllanishida muhim o'rin tutishi, madaniyatlararo muloqot va madaniy tafakkurning tilda ifodalanishi, lingvokulturologiya fanining shakllanishi va madaniyatni til orqali tadqiq etishning ahamiyati haqidagi umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

So'nggi yillarda olib borilgan izlanishlar tilshunoslikning antropologik xarakterda tadqiq etilishi zarurligini ko'rsatdi. Antroposentrik tilshunoslikda inson va uning til shakllanishi hamda rivojlanishidagi o'rni asosiy diqqat markazida bo'ladi. Madaniyatlararo muloqotlar milliy madaniyatlar o'rtasidagi bog'liqlik va milliy mentalitetning noyob xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar ta'sirida o'zgarimoqda va bu madaniyatning til orqali qanday ifodalanishini tadqiq etishni dolzarb masalaga aylantirgan. Shu jarayonda lingvokulturologiya sohasi rivojlanib, til va madaniyatning o'zaro aloqadorligini chuqurroq o'rganishga asos bo'lmoqda.

Y.A.Sorokin va I.Y.Markovina<sup>7</sup> ishlarida lakuna nazariyasi, ya'ni til va madaniyat o'rtasidagi bo'shliqlar va o'tmasliklarni o'rganish, madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariya, til elementlarining bir madaniyatda mavjud bo'lib, boshqa biri shakllanmaganlik holatlarni o'z ichiga oladi. Bu holatlar, turli madaniyat vakillarining bir-birini tushunishida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Alisher Navoiy o'z asarlarida madaniyat masalasini ijtimoiy va axloqiy hodisalar bilan o'zaro bog'liqligida deb biladi. Insonning madaniy ma'naviy qiyofaga ega bo'lishi faqatgina adolatli jamiyatdagina amalga oshadi, deb hisoblaydi<sup>8</sup>.

---

<sup>7</sup> Марковина И.Ю., Сорокин Ю.А. Культура и текст. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2008. – 138 с.

<sup>8</sup> Алишер Навоий. Ибратли ҳикоятлар ва ҳислатли ҳикматлар. – Тошкент: Sano standart, 2016. – Б. 78.

Madaniyat va til o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan ma'lum bir nuqtayi nazarni qabul qilishga qarab, mentalitetga aloqador bo'lgan dunyoning ilmiy, badiiy, folklor, lisoniy, milliy manzarasini aniqlashtirish mumkin. "Ko'pchilik olimlar yaqin vaqtgacha ilmiy bilimlarning o'zgarmasligi haqida "milliy til qobig'ida" dunyoning ilmiy manzarasi mavjudligi va milliy mentalitetda mujassamlangan va aks etgan milliy mentalitet o'rtasidagi aniq tafovut mavjudligi haqidagi fikrni ma'qullab kelishdi. Natijada til va madaniyatning o'zaro ta'siri ehtimoli rad etildi (dunyoning milliy lisoniy manzarasi va "chet til sohibi ongiga kirib bo'lmaydigan") va faqat ularning o'zaro tushunarligi tan olindi<sup>9</sup>.

Til va madaniyat o'rtasidagi determinizm, ya'ni o'zaro bir-birini taqozo etish tom ma'nodagi munosabatdir. Shuning uchun ham bu turdagi munosabatlarni faqat tilshunoslik emas, falsafa, psixologiya, sotsiologiya, san'atshunoslik kabi sohalar ham o'rganadi. Bu muammo tilshunoslar Y.Sorokin, V.Teliya, Y.Vereshagin, A.Vejbitskaya, V.Kostomarov, D.Olford, D.Xayms, faylasuflar G.Brutyayn, E.Markaryan va boshqalar, psixologlar L.Vigotskiy, A.Leontyev, V.Petrenko, P.Gulvistelar tomonidan samarali o'rganilgan. Bu masala nutq madaniyatiga oid tadqiqotlarda ham muhim o'rin egallaydi. Y.Skvorsov, E.Begmatov, A.Mamatov, B.Urinboyev kabi olimlarning ishlarini bunga misol qilish mumkin. Keyingi yillarda lingvokulturologiya alohida yo'nalish sifatida ajralib chiqdi. Bunda A.Krasnix, V.Maslova, D.Gudkov, D.Ashurova kabi olimlar o'z tadqiqotlarida bu masalaning dolzarbligini ko'rsatib berganlar.

Ushbu bobning "*Tilshunoslikda madaniyatlararo muloqot konsepsiyasi*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida madaniyatlararo muloqot, madaniy kompetensiya, muloqot madaniyati, diskurs strategiyalari, etnomadaniy axborot, madaniy farq, ramziy tizimlar turli madaniyatlararo tushunmovchiliklarni bartaraf etish yo'llari misollar orqali berib o'tilgan.

Til nafaqat madaniyat tushunchalari va munosabatlarini birlashtiradi va o'z birliklarida ularni saqlaydi. Til orqali ifodalangan tushuncha va qarashlar xalq mentalitetida aks etadi. Madaniyatni tarjima qilish funksiyasi orqali til ma'lum bir jamoaga xos bo'lgan lingvomadaniy dunyoni ifoda uslubini paydo qiladi.

Tadqiqotchilar madaniy ma'lumotlarni taqdim etishning 4 usulini aniqlaydilar:

1) madaniy semalar – nominativ birliklardan madaniyat belgilarini ko'rsatish quroli sifatida foydalanish;

2) madaniy fon – ijtimoiy hayot hodisalari va muhim tarixiy voqealar bilan bog'liq bo'lgan leksema va frazeologik birliklarni tavsiflaydi. U ma'noning denotativ jihatida ham mahalliylashgan, lekin madaniy semalardan farqli ravishda mafkuraviy mohiyatga ham ega bo'ladi;

3) madaniy konseptlar – hissiyotlar, holatlar, qadriyatlarga oid tushunchalarni bildiruvchi mavhum otlar. Ular dunyoning lisoniy manzarasida o'ziga xos xususiyatlar (haqiqat, vijdon, shaxsiyat, to'g'rilik)ni belgilaydi. Bunday tushunchalarning konseptual mazmuni lingvomadaniy hamjamiyat vakillari tomonidan milliy o'ziga xos qadriyat yo'nalishlari va ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida

---

<sup>9</sup> Лейчик В.М. Реальное и виртуальное в понятии «диалог культур» // Вестник МГУ. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2001. №3. – С. 75.

shakllanadi. Ularning ma'nosi va assotsiativ sohasi boshqa so'z-tushunchalarga nisbatan barqaror muvofiqlik kasb etadi;

4) madaniy konnotatsiya – madaniyat atamaları va toifalaridagi ma'noning denotativ yoki majoziy asosga ega jihatlarni kognitiv talqin qilishni anglatadi<sup>10</sup>.

Agar monomadaniy muloqotda freymlar (skriptlar) to'plangan tajribaga asoslanib, yangi aloqalarni shakllantirish uchun kognitiv asos bo'lib xizmat qilsa, madaniyatlararo muloqotda turli madaniyatga xos skriptlar nomuvofiqligi paydo bo'lishi mumkin. Bu esa kommunikativ qobiliyatsizlikka olib kelishi mumkin. Madaniyatlararo muloqotning muvaffaqiyatsizligi turli madaniyat vakillarining kognitiv modellari o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga keladi.

Madaniyatlararo muloqot muammolari haqida gapirganda, “etnomadaniy axborot” haqida gapirmaslik mumkin emas. Bugungi globallashuv jarayonida millatlararo munosabat madaniyatini uning etnomadaniy aspektlari masalasi yanada dolzarblashdi<sup>11</sup>.

Ko'rinadiki, pragmalingvistika muloqotning etnolingvistik xususiyatlarini ochib bersa, psixolingvistika nutqni uzatish va qabul qilishning universal va etnomadaniy psixik mexanizmlarini yuzaga keltiradi hamda olam manzarasini kodlaydi va dekodlashtiradi. Bunda sotsiolingvistik tahlil elementlari lison egasining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va tilning ma'no ko'lamida milliy-madaniy komponentning yaratilishida xizmat qiladi<sup>12</sup>.

Ushbu bobning “*Madaniyatlararo muloqot nazariyasida olamning lisoniy manzarasining namoyon bo'lishi*” deb nomlangan uchinchi paragrafida dunyoning lisoniy manzarasi til orqali dunyoni qanday ifodalashga asoslanishi, har bir madaniyat o'zining noyob konseptual dunyo tasvirini yaratishi tahlil qilingan.

Olamning manzarasi to'g'risidagi konsepsiya va u bilan bog'liq taxminlar, hatto antik davr tilshunoslik nazariyasida mavjud bo'lgan. Bunda V.fon Gumboldt, E.Sepir, B.L.Uorf, A.A.Potebnya, G.Gerder, Y.Grimm, F.Shlegel, F.I.Buslayev, F.F.Fortunatov, G.A.Brutyay, G.V.Kolshanskiy, R.Y.Pavilenis singari olimlarning qarashlari mazkur konsepsiyaning yuzaga chiqishiga zamin yaratdi<sup>13</sup>.

M.V.Ergasheva “Bizni qurshab turgan olam sistemaviy tabiatga egadir. U qismlarining o'zaro bir-birini taqozo etuvchi shartlangan munosabatdan tashkil topgan butunlikdir. Olam uzvlari inson ongida turlicha aks etadi. Olamning inson ongida aks etishi uning manzarasi sanaladi. Shunga ko'ra, olamning diniy, afsonaviy, ilmiy, lisoniy manzaralari tushunchalari maydonga keldi. Olamning lisoniy manzarasi deganda, olam sistemasining til orqali ifodalanishi tushuniladi. Til ongda aks etgan obyektiv olamning ifodalovchisi ekan, demak, u ham sistemaviylik xususiyatiga egadir”<sup>14</sup>, degan fikrga keladi.

N.Mahmudovning “Tilning so'z xazinasini va olamning lisoniy manzarasi” maqolasida kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida barcha xususiy

<sup>10</sup> Ольшанский И.Г. Лингвокультурология в конце XX века: итоги, тенденции, перспективы // Язык и культура. – М., 1999. – С. 39.

<sup>11</sup> Махмарайимова Ш. Лингвокультурология. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – Б. 32.

<sup>12</sup> Махмарайимова Ш. Лингвокультурология. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – Б. 27-28.

<sup>13</sup> Махмарайимова Ш. Лингвокультурология. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – Б. 27-28.

<sup>14</sup> Эргашева М.В. Оламнинг лисоний манзараси ва семантик майдонларга бўлиниши // Молодой ученый, 2016. – № 3. – С. 59-62.

fanlar tomonidan ishlab chiqilgan olam haqidagi bilimlar yig'indisi "olamning lisoniy manzarasi" ekanligini ko'rsatib o'tadi<sup>15</sup>.

Dunyoning madaniy (konseptual) manzarasi va uning til orqali ifodalanishi o'rtasidagi munosabatlar murakkab va ko'p qirralidir. B.A. Serebrennikovning fikricha, til orqali ifodalangan dunyo tasavvuri har doim ham haqiqiy dunyoqarashni to'liq va aniq aks ettira olmaydi. Biroq u qayd etganidek, bu xatoliklar shunchalik ahamiyatsizki, ularni tushunishning boshqa vositalari bilan to'ldirish mumkin<sup>16</sup>. Bu fikr, tilning cheklanganligi va uni to'ldirish uchun boshqa madaniy va ilmiy vositalardan foydalanish zaruratini ta'kidlaydi. Sh.Usmonovanning fikricha, olam manzarasining konseptual va lisoniy turlarini farqlash lozim. Olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasidan farqli o'laroq, bilish va ijtimoiy faoliyatlar natijalarini aks ettirib, doimo o'zgarishda bo'ladi<sup>17</sup>.

Har bir milliy manzara o'zining tilini, san'atini, urf-odatlarini va jamiyat qurilishini aks ettiradi. Milliy darajadagi konseptual manzara, shuningdek, o'sha millatning o'ziga xos ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tuzilishini ham ko'rsatib beradi. Masalan, Navro'z bayrami Markaziy Osiyo davlatlarining ko'pchiligida nishonlanadi va bu o'z navbatida ushbu mamlakatlarning konseptual manzarasida muhim o'rin tutadi. Shaxsiy daraja esa alohida shaxsning fikrlash tarzi, his-tuyg'ulari va tajribalarini o'z ichiga oladi.

Madaniyatlararo muloqot nazariyasida dunyo manzarasi tushunchasi ikki til va madaniyat ta'sirini ifodalaydi. Bu jarayonlarda "asosiy manzara" va "ikkilamchi manzara" atamalaridan foydalaniladi, ularning o'zaro ta'siri psixologik jihatdan murakkab jarayondir.

Ushbu bobning "*Madaniyatlararo muloqot jarayonida etnomadaniy masalalar*" deb nomlangan to'rtinchi paragrafida madaniyatlararo muloqotda etnomadaniy farqlar, til va ijtimoiy kodlarning mos kelmasligi, stereotiplar va turli milliy madaniyatlararo qiyinchiliklar xususida fikr yuritilgan.

An'anaga ko'ra, madaniyatlararo muloqot "turli milliy madaniyatlarga mansub kommunikativ aktning ikki ishtirokchisining o'zaro adekvat tushunishi<sup>18</sup>" yoki o'ziga xos "madaniyatlar muloqoti<sup>19</sup>" sifatida tavsiflanadi. Biroq, bu ta'riflarda muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy natijasiga aniq e'tibor qaratiladi, bu har doim ham kuzatilmaydi.

Madaniyatlararo muloqotning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun har bir ishtirokchi o'zaro hurmat va tushunish asosida muloqot qilishga tayyor bo'lishi kerak. Shuningdek, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda ta'lim va o'qitish, turli madaniyatlarni chuqurroq o'rganish va ulardan xabardor bo'lish muhim ahamiyatga ega. Madaniyatlararo muloqotning murakkabligi va ko'pqirraliligi uni qiyinlashtirgan bo'lsa-da, bu jarayon insonlar o'rtasidagi tushunish va hamkorlikni oshirishda kalit vazifasini o'taydi. Muloqotdagi qiyinchiliklarning mumkin bo'lgan

<sup>15</sup> Махмудов Н.Тилнинг сўз хазинаси ва оламнинг лисоний манзараси // Сўз санъати, № 1 (2018). – Б.18-27.

<sup>16</sup> Серебренников Б.А. Как происходит отражение картины мира в языке? // Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира – М.: Наука, 1988. – С. 87-107.

<sup>17</sup> Usmonova Sh. Lingvokulturologiya (darslik) – Toshkent, 2019. – В. 78.

<sup>18</sup> Верещагин Е.М. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – М.: Русский язык, 1990. – С. 26.

<sup>19</sup> Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – С. 14.

sabablarini aniqlashda madaniyatlararo muloqot nazariyasi tegishli fanlar ma'lumotlariga asoslanadi.

Madaniyatlararo aloqa sohasidagi mutaxassislar nomuvofiqligi aloqaning buzilishiga olib keladigan bir nechta parametrlarni nomlashadi: dunyo manzaralari (Weltbilder) – qadriyatlar (Werte) – me'yorlar (Normen) – konvensiyalar (Konventionen) – xulq-atvor namunalari (Verhaltensmuster)<sup>20</sup>. Muloqot nafaqat “muloqotning asosiy kodi” bo'lgan tilni bilmaslik, balki “qo'shimcha kod bilimi<sup>21</sup>”, “paraverbal va ekstraverbal signallar (paraverbale imd extraverbale Signale)<sup>22</sup>” haqida bilim yo'qligi tufayli ham qiyin. Muloqotchilar yo'lidagi to'siqlarga etnik madaniyat darajasi, etnosentrizm, noto'g'ri qarashlar va stereotiplar, og'zaki bo'lmagan muloqot kiradi<sup>23</sup>.

Lakunalar madaniyatlararo muloqotda tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib beruvchi muhim lisoniy birlikdir<sup>24</sup>. Shuningdek, kommunikativ buzilishlar “noto'g'ri ekvivalentlar” deb ataladigan narsalarni bilmaslik bilan bog'liq bo'lishi mumkin<sup>25</sup>. Etnik o'ziga xos birlashmalar va g'oyalar, odatda, turli tillardagi o'xshash so'zlar uchun turli xil konnotatsiyalarning ko'rinishini aniqlaydi, shuning uchun boshqa etnik madaniyat vakili bilan muloqotda ulardan foydalanish ko'pincha ekvivalent bo'lmagan yoki asosiy lug'atga qaraganda ancha qiyinchilik tug'diradi.

Ishning “**Kognitiv tilshunoslikda lakunalar masalasi**” nomli ikkinchi bobi uch paragrafdan iborat bo'lib, birinchi paragraf “*Kognitiv tilshunoslikning nazariy masalalari haqida*” deb nomlangan.

G'arb tilshunosligida, jumladan, V.Gumboldt va F.de Sossyur kabi olimlarning asarlarida ham til leksikasidagi “bo'sh joy”lar haqidagi fikrlarni topish mumkin. V.fon Gumboldt tilning milliy o'ziga xosligini va u orqali ifodalanadigan madaniy tasavvurni tahlil qilib, tilning faqat muloqot vositasi emas, balki dunyoni tushunish va tasavvur qilish usuli ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, har bir til o'z dunyoqarashiga ega bo'lib, bu dunyoqarash tilning leksik tuzilmasida aks etadi.<sup>26</sup> F. de Sossyur esa tilning strukturaviy tomonlariga e'tibor qaratib, til tizimining belgi va belgilar o'rtasidagi munosabatlardan iborat ekanligini aytadi. U “belgi” (sign) va “belgilangich” (signifier) tushunchalarini kiritib, tilning ijtimoiy kelishuv orqali shakllanganligini va bu tizimda ba'zi bo'sh joylar yoki lakunalar mavjudligini ta'kidlaydi. Bu lakunalar boshqa tillarda to'liq ifodalanmagan leksik birliklarni

---

<sup>20</sup> Kelz H.P. Interkulturelle Kommunikation und Wirtschaftsdeutsch-Didaktik // Das Wort. Germanistisches Jahrbuch '00-01 GUS. – Moskva: „Metatext” Ltd, 2000. – S. 247-262.; Knapp K. Kulturunterschiede // Handbuch interkulturelle Germanistik / herausgegeben von Alois Wierlacher und Andrea Bogner. – Stuttgart; Weimar: J.B. Metzler Verlag, 2003. – S. 54-60.

<sup>21</sup> Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. – С. 53.

<sup>22</sup> Kelz H.P. Interkulturelle Kommunikation und Wirtschaftsdeutsch-Didaktik // Das Wort. Germanistisches Jahrbuch '00-01 GUS. – Moskva: „Metatext” Ltd, 2000. – S. 249.

<sup>23</sup> Галинская И.Л. Мультикультурализм и межкультурная коммуникация // Культурология: Дайджест. – 2005, № 4. – С. 6-11.

<sup>24</sup> Абдурахмонов М.Ф. Муқобилсиз лексиканинг семантик-функционал хусусиятлари: Фил. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссертация – Б. 72.

<sup>25</sup> Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – С. 53.

<sup>26</sup> Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М., 1985. – С.300-304.

ifodalaydi va shu orqali har bir tilning o'ziga xosligini ko'rsatadi<sup>27</sup>. Bu fikrlar tilshunoslikda "bo'sh joylar" fenomenini tushunishga yordam beradi va tilning leksik jihatlaridagi muqobilsizliklarni tushuntiradi.

Faqat ma'lum bir til jamoasi uchun xos bo'lgan hamda ikkinchi tilda o'xshashi yo'q bo'lgan tushuncha, predmet, hodisalar turli davrlarda turli olimlar tomonidan turlicha terminlar bilan atalgan. Jumladan, L.S.Barxudarov, Y.M.Vereshchagin, V.G.Kostomarov ularni ekvivalentsiz leksika deb, S.Vlaxov, S.Florin ekzotizm, realiyalar deb, V.V.Kabakchi ksenonim deb, Y.Y.Proxorov logoepistema deb, I.A.Sternin, V.L.Muravyov lakuna deb ataganlar. Ayrim olimlar lakuna va realiya terminlarini yanada konkretlashtirib, aniqlashgan. L.S.Barxudarov tasodifiy lakuna shaklda, V.L.Muravyov mutlaq lingvistik lakunalar deb, D.R.Djumanova esa realema shaklda qo'llaganlar<sup>28</sup>.

G'arb tilshunosligida madaniyatlararo muloqot jarayonida yuzaga kelgan muammolar Y.A.Sorokin, I.Y.Markovina, I.A.Sternin, G.V.Bikova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan "lakuna nazariyasi" deyish mumkin bo'lgan nazariyani yaratishga olib keldi<sup>29</sup>. Lakuna nazariyasi, birinchi navbatda, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi va bu bog'liqlikni yanada chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

D.Xudoyberganova lakunaga ta'rif berar ekan, uni muloqot jarayonida muayyan madaniyatning vakili tomonidan to'liq yoki qisman anglashilmaydigan o'ziga xos milliy unsur deb ataydi<sup>30</sup>. V.I.Jelvisning fikricha ham, lakuna – "ba'zi bir madaniyatlarda kuzatiladigan va boshqa tillarda mavjud bo'lmagan, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ommaviy ifodaga ega bo'lmagan "alohidalik"dir"<sup>31</sup>. Bundan ko'rinib turibdiki, tadqiqotchilar lakunarlik kategoriyasini uning tarkibiy qismi bilan birgalikda lakuna deb atamoqda. Shuningdek, ular lakunalarni faqatgina madaniyat bilan bog'lashadi, bu bilan esa ularni realiyalar bilan chalkashtirishadi.

Hozirgi kunda turli tillar doirasidagi lakunalarning turli tamoyillarga asoslangan bir qator tasniflari mavjud. Mazkur tasniflarni quyidagi jadvallar orqali ko'rishimiz mumkin.

---

<sup>27</sup> Фердинанд де Соссюр. Умумий тилшунослик курси (Француз тилидан И.Мирзаев таржимаси). – Тошкент: "Navoiy universiteti" нашриёт матбаа уйи, 2019. – Б.133-134.

<sup>28</sup> Зокирова С. Тиллар тадқиқида контрастив лингвистика илмий парадигмасининг ўрни: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) дисс.си. – Фарғона, 2018.

<sup>29</sup> Проскурин Е.Г. Когнитивная лакунарность текста как проблема межкультурной коммуникации: Диссертация на соис. ученой степени канд. филол. наук. – Барнаул, 2004. – С. 34.

<sup>30</sup> Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 25-26.

<sup>31</sup> Жельвис В.И. К вопросу о характере русских и английских лакун // Национальнокультурная специфика речевого поведения. – М.: Наука, 1977. – С. 136-137.

## Lakunalarining tamoyillar asosida tasniflanishi

TASNIF TAMOYILLARI	Lakuna turlari				
Til sistemasiga taalluqliligi jihatidan	bir til doirasida	turli tillar doirasida			
So'z turkumlariga mansubligi asosida	ot	sifat	fe'l	olmosh	ravish
Verbal xususiyatlariga ko'ra	fonetik	leksik	frazeologik	grammatik	stilistik
Kognitiv xususiyatlariga ko'ra	perseptiv	etnografik	kulturologik	konseptual	
Motivatsiyasiga ko'ra	psixologik	estetik	diniy		
Faoliyat-kommunikativ xususiyatiga ko'ra;	Milliy o'yinlar bilan bog'liq	Urf-odatlar bilan bog'liq	muloqot madaniyati bilan bog'liq		

## Lakunalar tasnifi

Olimlar	Tasniflar
Y.A.Sorokin va I.Y.Markovina	<ul style="list-style-type: none"> <li>– madaniy (etnografik, assotsiativ, madaniyatlararo lakunalar, faol-kommunikativ, emotiv-hissiy);</li> <li>– lingvistik lakunalar (stilistik, grammatik va leksik);</li> <li>– matniy lakunalar (allyuziyalar) va so'z o'yinlari;</li> </ul>
Z.D.Papova va I.A.Sternin	<ul style="list-style-type: none"> <li>– til sistemasiga taalluqliligi jihatidan (bir til doirasida va turli tillar doirasida);</li> <li>– tilga bog'liq bo'lmagan holda (motivlangan va motivlanmagan);</li> </ul>
Y.A.Eynullayeva	<ul style="list-style-type: none"> <li>– verbal xususiyatlariga ko'ra (fonetik, leksik, frazeologik, grammatik, stilistik)</li> <li>– kognitiv xususiyatlariga ko'ra (perseptiv, etnografik, kulturologik, konseptual);</li> </ul>
A.A.Maxonina	<ul style="list-style-type: none"> <li>– gender xususiyatlariga ko'ra;</li> <li>– predmetlar ifodalayotgan metonimik munosabatga ko'ra</li> </ul>
G.V.Bikova	<ul style="list-style-type: none"> <li>– unikal va xususiy, absolut va nisbiy lakunalar;</li> <li>– etnografik, aralash, nol formadagi lakunalar;</li> <li>– grammatik, nutqiy, to'liq va qisman kompensatsiyalangan lakunalar;</li> </ul>
A.A.Maxonina va M.A.Sternina	<ul style="list-style-type: none"> <li>– umumlashtiruvchi;</li> <li>– konkretlashtiruvchi.</li> </ul>
D.R.Djumayeva	<ul style="list-style-type: none"> <li>– san'at dunyosi, hunarmandchilik</li> <li>– antroponimlar, toponimlar</li> </ul>
Sh.Usmonova	<ul style="list-style-type: none"> <li>○ subyektiv yoki milliy-psixologik xususiyatiga ko'ra;</li> <li>○ matn va madaniy makon xususiyatlariga bog'liqligi ko'ra;</li> </ul>

Tafakkurning milliy o'ziga xosligi ko'p jihatdan milliy til bilan belgilanadi. Bizningcha, so'zning kognitiv tuzilma sifatidagi ma'nosi xabarning talqin qilinishini belgilaydi. Turli tillarda esa so'zlar ortida turli kognitiv tuzilmalar mavjud. Bundan tashqari, har bir lisoniy hodisa, tilning har bir toifasi shaxsning konseptual tizimida o'ziga xos aqliy korrelatsiyaga ega. Qabul qiluvchiga begona tilning har qanday lingvistik faktlarini to'g'ri tushunish uchun aynan shu yangi aqliy korrelatsiyalarni (kognitiv modellar va chetki so'z bilan ifodalangan tuzilmalar)ni shakllantirish til sohiblari uchun yangilikdir. Bu holat, ko'pincha, biror xorijiy tilni o'rganishda aniq namoyon bo'ladi.

Ushbu bobning *"Lakunalar nazariyasining asosiy tushunchalari ularning tasnifi"* deb nomlangan ikkinchi paragrafida kognitiv tilshunoslikning asosiy tamoyillari va vazifalari yoritilgan.

Kognitiv fan – bu bizning ongimizda ifodalanadigan va aqliy jarayonlarning asosini tashkil etuvchi mazmunli va tizimli ma'lumotlar shaklida to'plangan, dunyoni idrok etish natijalari va odamlarning subyekt-kognitiv faoliyati haqidagi fan. Ko'pincha, kognitiv fan turli kanallar orqali insonga keladigan bilimlarni ifodalash va ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlari haqidagi fan sifatida ta'riflanadi.

Professor A.Mamatov til tizimini kognitiv jihatdan tahlil qilish borasida fikr yuritar ekan, "Kognitiv fan kognitsiya (bilish) bilan shug'ullansa, kognitiv tilshunoslik kognitsiyaning, ya'ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiq qiladi. Tilga bo'lgan kognitiv yondashuv – bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o'z tuzilishiga ko'ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi<sup>32</sup>" deb yozadi.

Kognitiv tilshunoslik tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o'rganuvchi sohadir. Xususan, tilshunos Sh.Safarovning fikriga ko'ra, "Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikosi sifatida tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir"<sup>33</sup>. Bu qarashlar rus olimasi Y.T.Belyayevskayaning fikrlariga to'la mos keladi.

A.Abduazizovning ta'kidlashicha, kognitiv tilshunoslik "o'zaro bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan kognitiv fonologiya, kognitiv grammatika, kognitiv semantika" yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Kognitiv tilshunoslikning bugungi kun taraqqiyoti bosqichida konseptual tahlilning ko'plab muammolari hal qilinmoqda, inson ongini tadqiq qilish borasida izlanishlar olib borilmoqda.<sup>34</sup> Bu fikrlarga D.Ashurova ham qo'shiladi. Uning ta'kidlashicha, kognitiv tilshunoslikning maqsad va vazifalari, o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalarni ko'rsatilib o'tilar ekan, jumladan, hozirgi davrda shakllanib borayotgan kognitiv tilshunoslikning kognitiv fonologiya, kognitiv grammatika, kognitiv leksikologiya, kognitiv semantika kabi yangi yo'nalishlari vujudga kelganligi ta'kidlanadi<sup>35</sup>. "Kognitiv yo'nalishning muhim

<sup>32</sup> Mamatov A.E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? // Tilshunoslikning dolzarb masalalari: Prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2012. – b. 213.

<sup>33</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 91.

<sup>34</sup> Абдуазизов А. О составных частях когнитивной лингвистики // Хорижий филология, 2007, №3.

<sup>35</sup> Ашурова Д.У. Развитие когнитивной лингвистики в Узбекистане // Хорижий филология, 2016, №3

xususiyati, uning tarafdorlari ta'kidlaganidek, obyektidan subyektga tubdan o'tishdir, ya'ni nutqni yaratish va idrok etish subyektning mavjud bilimlari asosida amalga oshiriladigan konstruktiv faoliyati sifatida qaraladi"<sup>36</sup>. Yuqoridagi izlanishlardan ko'rinib turibdiki, kognitiv lingvistika til va tafakkur, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar muammolarini, olam haqidagi bilimlar tizimini konseptuallashtirish va tasniflashtirishda tilning o'rnini o'rganuvchi mustaqil yo'nalish. Kognitiv tuzilmalar va og'zaki tuzilmalar o'rtasidagi bog'liqlikning mavjudligi, shuningdek, bilishning asosiy mexanizmlarining universalligi turli tillarda so'zlashuvchilarning kognitiv zaxirasini solishtirish imkonini beradi. Muloqotning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi tilni bilishni o'zgartirish va optimallashtirish kognitiv strategiyalar zaxirasini to'ldirish uchun sabab bo'lishi mumkin. Binobarin, etalon til bo'lmagan chet til ta'sirida turli yangi kognitiv tuzilmalar shakllanishi mumkin.

Dissertatsiyaning "*Kognitiv tilshunoslikda lakunalarning o'rne*" deb nomlangan uchinchi paragrafida milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo'lgan asosiy tushunchalar, antroposentrik, tabiiy hodisalar va tirik jonzodlar guruhlariga ajratilgan holda izohlangan. Unda vaqt, makon, miqdor, inson a'zolari, tabiat hodisalari va jonzotlar bilan bog'liq lakunarlik o'zbek, ingliz, rus va boshqa tillar misolida tadqiqqa tortilgan.

Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan lakunalar muloqotning muvaffaqiyatli kechishi yoki muvaffaqiyatsiz yakun topishi til bilimlarini o'zlashtirish va optimallashtirish strategiyalarini maqsadli qo'llay olishni nazarda tutadi. Bunda milliy-madaniy konseptning roli muhimlashadi.

Lakunalar tegishlilik xususiyatiga ko'ra 4 guruhga bo'linadi. Ular: konseptual farqlanishlar, bilish modellariga mos kelmaslik, tarjima muammolari, madaniy va lingvistik chegaralari<sup>37</sup>.

1. *Konseptual farqlanishlar* lakunalar odatda turli madaniyatlar va tillar orasidagi konseptual farqlanishlardan kelib chiqadi. Har bir til va madaniyat o'ziga xos dunyoqarash va tajriba bilan bog'liq konseptual tuzilmaga ega.

2. *Bilish modellaridagi mos kelmaslik* jihatdan lakuna ikki til yoki madaniyat o'rtasidagi bilish modellarining to'liq mos kelmasligi natijasida yuzaga keladi.

3. *Tarjima va interpretatsiya muammolari* bevosita jarayonda aniqlashadi. Masalan, "O'tkan kunlar" asarida Kumushbibining "tegmangiz, ushlamangiz" degan so'zlarini tarjimasida juda qiyin kechgan.

4. *Madaniy va lingvistik chegaralar* til va madaniyat o'rtasidagi chegaralarni belgilashga lakunalarning yordam berish mumkinligi bilan bog'liq. Ular turli madaniyatlarning o'ziga xosligini va ularning leksik tizimlari o'rtasidagi farqlarni ko'rsatadi.

Kognitiv lakunalar yot tushunchalar, arxeotiplar, prototiplar, pretsedent hodisalar va assotsiativ lakunalardan iborat bo'lib, inson ongida mavjud bo'lgan bilim va tushunchalar to'plami bilan bog'liqdir. Kognitiv lakunalar madaniyatlararo muloqotda tushunmovchiliklarga sabab bo'luvchi asosiy birliklar hisoblanadi.

---

